


O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

**70410101 – Buxgalteriya hisobi (qishloq xo‘jaligida) magistratura
mutaxassisligining malaka talablari**

Toshkent - 2023



ISHLAB CHIQILGAN:

- Toshkent davlat agrar universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil « 21 » avgust dagi 367-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me‘yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	<i>70410101-Buxgalteriya hisobi (qishloq xo'jaligida)</i> magistratura mutaxassisligining umumiy tavsifi	4
1.1.	Qo'llanish sohasi	4
1.1.1.	<i>70410101-Buxgalteriya hisobi (qishloq xo'jaligida)</i> magistratura mutaxassisligi malaka talabining qo'llanilishi	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	<i>70410101-Buxgalteriya hisobi (qishloq xo'jaligida)</i> mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlari tavsifi	4
1.2.1.	<i>70410101-Buxgalteriya hisobi (qishloq xo'jaligida)</i> mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari	4
1.2.2.	<i>70410101-Buxgalteriya hisobi (qishloq xo'jaligida)</i> mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari	4
1.2.3.	<i>70410101-Buxgalteriya hisobi (qishloq xo'jaligida)</i> mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4.	<i>70410101-Buxgalteriya hisobi va audit (qishloq xo'jaligida)</i> mutaxassisligi bo'yicha magistrarning kasbiy vazifalari.....	5
2.	<i>70410101-Buxgalteriya hisobi (qishloq xo'jaligida)</i> mutaxassisligi bo'yicha magistrarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar	6
2.1.	Umumiy kompetensiyalar.....	7
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....	7
2.3.	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.....	8
2.3.1.	Kvalifikatsiya.....	8
2.3.2.	<i>70410101-Buxgalteriya hisobi (qishloq xo'jaligida)</i> magistratura mutaxassisligi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar.....	8
2.3.3.	<i>70410101-Buxgalteriya hisobi (qishloq xo'jaligida)</i> magistratura mutaxassisligi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi.....	8
	Bibliografik ma'lumotlar.....	9
	Kelishuv varag'i.....	10

1. 70410101 – Buxgalteriya hisobi (qishloq xo‘jaligida) magistratura mutaxassisligining umumiy tavsifi.

70410101 – Buxgalteriya hisobi (qishloq xo‘jaligida) magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar tayyorlash kunduzgi ta‘lim shaklida amalga oshiriladi. Mutaxassislik bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me‘yoriy muddati 2 yil.

1.1. Qo‘llanish sohasi

1.1.1. 70410101 – Buxgalteriya hisobi (qishloq xo‘jaligida) magistratura mutaxassisligi malaka talabining qo‘llanilishi.

Malaka talabi 70410101 – *Buxgalteriya hisobi (qishloq xo‘jaligida)* magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta‘lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur magistratura mutaxassisligi bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas‘ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta‘lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilari;

- magistratura mutaxassisligi o‘quv rejasi va fan dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta‘lim muassasasining talabalari;

- magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- ta‘limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta‘lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta‘minlovchi organlar;

- oliy ta‘lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta‘lim tashkilotlariga o‘qishga kirayotgan baklavriat bitiruvchilari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 70410101 – Buxgalteriya hisobi (qishloq xo‘jaligida) mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi

1.2.1. 70410101 – Buxgalteriya hisobi (qishloq xo‘jaligida) mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari:

70410101 – Buxgalteriya hisobi (qishloq xo‘jaligida) – “Biznes va boshqaruv” ta‘lim sohasiga oid mutaxassislik bo‘lib, u barcha ta‘lim muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o‘qitish, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlari, markazlari, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalarida ilmiy tadqiqot faoliyatini yuritish, turli mulkchilik shaklidagi korxonalarida, nodavlat va notijorat tashkilotlarida, markaziy va mahalliy davlat boshqaruvi organlarida, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarida buxgalteriya hisobi faoliyatni tashkil etish va boshqarishga oid kompleks masalalarni hal etish, shuningdek iqtisodiyot tarmoqlari va sohasini rivojlantirishda buxgalteriya hisobini yuritish, istiqbolini belgilashga, kasbiy ko‘nikmaga, mutasaddilik qobiliyatiga yo‘naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usullari, metodlari va uslublarining majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. 70410101 – Buxgalteriya hisobi (qishloq xo‘jaligida) mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

- oliy ta‘lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta‘lim muassasalarida pedagogik faoliyat;

- Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarida hamda oliy ta‘lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyati va jarayonlar;

- agrar soha korxonalarining rivojlanishi strategiyasini ifodalovchi buxgalteriya hisobi ko'rsatkichlar tizimi;
- davlat va shaxs hamda xo'jalik faoliyati subyektlarining buxgalteriya hisobini yo'lga qo'yish, iqtisodiyot sohasidagi huquq-tartibot va qonuniylikni ta'minlash jarayonlari;
- davlat va mahalliy boshqaruv organlari, iqtisodiyot va moliya boshqaruvi organlarida boshqaruv jarayonlari;
- iqtisodiyot tarmoqlari, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish majmualari, turli mulkchilik shaklidagi assotsiatsiyalar, korporatsiyalar, konsernlar, firma, kompaniyalar, xolding, ishlab chiqarish birlashmalarida buxgalteriya hisobi faoliyatini tashkil etish va boshqarish jarayonlari;
- buxgalteriya hisobi sohasida ilmiy va amaliy tadqiqot, nazariy va amaliy tahlil, modellashtirishni amalga oshirish jarayonlari;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar va hodisalarni, mikro va makro iqtisodiy makonda buxgalteriya hisobi ko'rsatkichlarining tahlili jarayonlari.

1.2.3. 70410101 – Buxgalteriya hisobi (qishloq xo'jaligida) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari

- ilmiy tadqiqot faoliyati;
- pedagogik faoliyat;
- moliyaviy-iqtisodiy faoliyat;
- hisob, tahlil va nazorat faoliyati;
- huquq-tartibot faoliyati;
- tashkiliy-boshqaruv faoliyati;
- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyati.

1.2.4. 70410101 – Buxgalteriya hisobi (qishloq xo'jaligida) mutaxassisligi bo'yicha magistrnlarning kasbiy vazifalari:

70410101 – Buxgalteriya hisobi (qishloq xo'jaligida) mutaxassisligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Ilmiy tadqiqot va pedagogik faoliyatida:

- ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o'tkazish, tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashf etish;
- ilmiy maqolalar, ma'ruzalar, risola, o'quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;
- ilmiy adabiyotlar va internet tarmog'ida eng yangi ilmiy, konstruktorlik, texnologik va ekspluatatsion yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;
- ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish hamda faol ishtirok etish;
- mos mutaxassislik mavzusi bo'yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish;
- oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida mutaxassisligi bo'yicha pedagogik va o'quv-uslubiy faoliyat yuritish;
- o'quv jarayonini va ilmiy faoliyatni tashkil qilish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, o'qitishning texnik vositalaridan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;
- elektron (e-learning), mobil (m-learning), masofaviy axborot texnologiya va o'quv-metodik majmualarni mukammal o'zlashtirish;
- pedagogik va ilmiy mahorati hamda malakasini muntazam oshirib borish.

Moliyaviy-iqtisodiy hamda hisob, tahlil va nazorat faoliyatida:

- davlat, mahalliy hukumat va xo'jalik yurituvchi subyektlar buxgalteriya hisobini tashkil etish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi qonunlari hamda normativ-huquqiy hujjatlarni bilishi va ulardan o'z faoliyatida foydalana olish;

- buxgalteriya hisobining miqdor va sifat mezonlari iqtisodiy tizim va obyektlar chegaraviy hamda kritik holatining indikatorlarini aniqlash;
- buxgalteriya hisobi sohasida yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual hamda nazariy modellarini ishlab chiqish va ilmiy-tadqiqot natijalari bo'yicha tavsiyalar va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etish;
- iqtisodiyot subyektlarining moliyaviy barqarorligini oshirish va uni rivojlantirish yo'llarini ishlab chiqish;
- O'zbekistondagi hamda xorijdagi mikro va makrodarajada sodir bo'ladigan, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar hamda hodisalarni tavsiflaydigan ko'rsatkichlarni tahlil qilish va qiyoslash;
- byudjet tizimi va byudjet parametrlari, byudjetdan tashqari turli jamg'armalarning shakllanishi hamda bajarilishini nazorat qilish, davlat va mahalliy resurslardan foydalanish borasida qonunbuzarliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish choralarini ko'rish hamda korrupsiyaga qarshi tadbirlarni amalga oshirish;
- moliya operatsiyalari, moliya bozori faoliyati monitoringini olib borish, davlat va mahalliy tashkilotlar, korxonalarda buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil, ichki nazorat va audit tizimining samarali faoliyat ko'rsatishini baholash, qonunbuzarliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish choralarini ko'rish.

Huquq-tartibot faoliyatida:

- qonuniylik va huquq-tartibotni ta'minlash, jamiyat, davlat va shaxs hamda xo'jalik faoliyati subyektlarining buxgalteriya hisobi axborotlari xavfsizligini ta'minlash, turli mulk shakllarini himoya qilish;
- jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga ko'maklashish;
- buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritish, iqtisodiy tahlil va auditni o'tkazishga tahdid soluvchi omillarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar va qonunbuzarliklarni profilaktika qilish, ogohlantirish, aniqlash va ochish hamda korrupsiyaga qarshi tadbirlarni amalga oshirish.

Tashkiliy-boshqaruv hamda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatida:

- ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish;
- tashkilot, korxonalar va ularning alohida bo'linmalar tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish;
- xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini rejalashtirish, hisob-kitob va tahlil qilish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar, huquqiy hamda normativ-huquqiy hujjatlar;
- reja, hisob-kitob hujjatlarini yuritish, yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish, buxgalteriya hisobi sohasida ratsionalizatorlik takliflar va ixtirolar bo'yicha iqtisodiy samaradorlikni aniqlash;
- qabul qilinadigan qarorlarni buxgalteriya hisobi, ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik mezonlari asosida ularni xavf-xatar va oqibatlarini hisobga olgan holda boshqaruv qarorlari variantlarini ishlab chiqishda hamda tanlab olishni asoslashda ishtirok etish;
- shartnomalarni tuzish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni to'plash, tezkor va statistik hisobotni olib borishni tashkil etish, hisobotlarni tuzish tartiblarini aniqlash;
- tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalarining tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish hamda mehnat resurslaridan samarali foydalanish hisobini tashkil etish va amalga oshirish;
- loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish buxgalteriya hisobini tashkil etish, bajarilayotgan nazariy va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha xavfsiz matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tatbiq etish.

2. 70410101 – Buxgalteriya hisobi (qishloq xo‘jaligida) mutaxassisligi bo‘yicha magistrnlarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo‘lishi, umummetodologik fanlar asosi, iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, ilmiy tadqiqot va pedagogika metodologiyasini bilishi va kasbiy faoliyatida undan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;
- o‘zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko‘rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;
- o‘z faoliyatida normativ-huquqiy hujjatlardan foydalana olishi, o‘zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;
- internet tarmog‘idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo‘lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;
- axborot texnologiyalaridan foydalana olishi, axborotlashgan jamiyat va raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarni anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o‘tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilish;
- ta‘lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishni bilish;
- ilmiy faoliyati natijalari bo‘yicha davlat va xorijda e‘lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;
- davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e‘lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo‘lishi;
- ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;
- tashkilot, korxonalar va ularning alohida bo‘linmalar tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag‘batlantirish tizimini yo‘lga qo‘yish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;
- buxgalteriya hisobi sohasi bo‘yicha agrar soha korxonalarida ishlab chiqarish va mehnat resurslaridan samarali foydalanishda hisob tamoyillarini qo‘llay bilishi;
- bajarilayotgan nazariy va amaliy ishlar mavzusi bo‘yicha matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tatbiq etish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;
- agrar soha bo‘yicha moliyaviy va statistik hisobotlarni tuzish hamda ularni sharhlash ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- agrar soha bo‘yicha buxgalteriya hisobi yuritilishini ta‘minlash, ularga ta‘sir etuvchi omillarni aniqlash bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazishni va tahliliy ishlarni bajarishni bilishi;
- agrar soha bo‘yicha moliyaviy, iqtisodiy, strategik rejalarni ishlab chiqish, buxgalteriya hisobi sohasida yechilayotgan ilmiy muammolarning konseptual hamda nazariy modellarini ishlab chiqish va ilmiy-tadqiqot natijalari bo‘yicha tavsiyalar va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishni bilish;
- loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholash ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- iqtisodiy vaziyatlarga tahdid soluvchi omillarni bartaraf etishga qaratilgan chora-

tadbirlarni amalga oshirish malakasiga ega bo'lish;

- normativ-huquqiy hujjatlarni iqtisodiy ekspertizadan o'tkazishni bilish;
- buxgalteriya hisobi, audit, soliq nazorati yoki ushbu sohalarida o'qitish yo'nalishlari bo'yicha analitik ishlash va qarorlar qabul qilish qobiliyatiga ega bo'lish.

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

- Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketma-ketlikda kiritiladigan majburiy va tanlov fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

- Majburiy fanlar – magistratura mutaxassisligi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

- Tanlov fanlari – magistratura mutaxassisligi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

- Magistratura mutaxassisligi bo'yicha ilmiy amaliyot o'tkaziladi:

- ilmiy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

2.3.1. Kvalifikatsiya: buxgalter-auditor, iqtisodchi, tadqiqotchi-pedagog.

2.3.2. 70410101 – Buxgalteriya hisobi (qishloq xo'jaligida) magistratura mutaxassisligi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar:

O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	1380	46
Tanlov fanlar	420	14
Ilmiy faoliyat	1800	60

2.3.3. 70410101 – Buxgalteriya hisobi (qishloq xo'jaligida) magistratura mutaxassisligi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar	1380	46	
1.01	ITMM1304	Ilmiy tadqiqot metodologiyasi	120	4	1
1.02	MHXSM1408	Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari-2	240	8	1,2
1.03	OSBHM1404	Operativ va strategik boshqaruv hisobi	120	4	2
1.04	MFO'MM1404	Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi	120	4	2
1.05	AAM1408	Amaliy audit	240	8	2,3
1.06	MHTM2404	Moliyaviy hisobot tahlili	120	4	3
1.07	QXBHM2404	Qishloq xo'jaligida buxgalteriya hisobi	120	4	3
1.08	SSTM2404	Soliqlar va soliqqa tortish-2	120	4	3
1.09	TIFBM1306	Tashqi iqtisodiy faoliyat buxgalteriya hisobi, auditori va tahlili	180	6	1
2.00		Tanlov fanlar	420	14	
2.00		<i>Tanlov fanlar (3)</i>	420	14	1,2,3
		Jami	1800	60	
		Ilmiy faoliyat	1800	60	
		Jami	1800	60	1,2,3,4
		HAMMASI	3600	120	

Bibliografik ma'lumotlar

UO'K: 657

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, mutaxassislik, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning o'quv reja va fan dasturi (magistratura dasturi), profil, o'quv davri, ta'lim texnologiyalari, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil, ichki nazorat, audit, agrar soha, qishloq xo'jaligi, baholash, sifatni baholash va nazorati, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, malaka amaliyoti, davlat attestatsiyasi, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, hisob-kitob, moliyaviy hisob, boshqaruv hisobi, moliviy hisobot, statistik hisob, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy-tadqiqot jarayoni, maxsus fanlarni o'qitish metodikasi, axborot-kommunikativ tizimlar, zamonaviy tadqiqot metodlari, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, modellar va modellashtirish, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil qilish, virtual elektron bilim manbalari, didaktika, nazariya.

**Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari
hamda kadrlar iste'molchilari**

ISHLAB CHIQLGAN:

Toshkent davlat agrar universiteti

Birinchi prorektor S. Islamov

2023 yil « 01 » 07


M.O'.



KELISHILGAN:

**O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi
Ilmiy-tadqiqot, agromaslahat va ta'limni rivojlantirish boshqarmasi**
boshlig'i A. Shamsiyev

M.O.



2023 yil « 21 » 07

**O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish
tadqiqotlari markazi**

Direktor Sh. Yakubov

2023 yil « 21 » 08

M.O'.



**Toshkent davlat
iqtisodiyot universiteti**

Rektor K. Sharipov

2023 yil « 20 » 07

M.O.



O'zbekiston Auditorlar palatasi

Kengash raisi N. Karimov

2023 yil « 17 » 08

M.O'.




**O'zbekiston Buxgalterlar va auditorlar
milliy assotsiatsiyasi**

Kengash raisi M. Tulaxodjayeva

2023 yil « 18 » 07

M.O.



Toshkent moliya instituti

Rektor F. Z. Teshabayev

2023 yil « 19 » 07

M.O.



TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI
70410101 – Buxgalteriya hisobi (qishloq xo‘jaligida) magistratura mutaxassisligi bo‘yicha
malaka talablari va o‘quv rejasi ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta‘lim muassasalari
va asosiy kadrlar iste‘molchilari o‘rtasida

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent vil.

“10” 07 2023 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – Toshkent davlat agrar universiteti birinchi prorektori, prof. S.Y.Islamov, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori prof. K.A.Sharipov, Toshkent moliya instituti rektori, prof. T.Z.Teshabayev birgalikda Toshkent davlat agrar universitetida ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta‘lim yo‘nalishining malaka talablari va o‘quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

70410101 – Buxgalteriya hisobi (qishloq xo‘jaligida) magistratura mutaxassisligi.

Malaka talablari hamda o‘quv rejani ishlab chiqilishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 5847-son farmoni, 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-2909-son, 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-son, 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 15 iyundagi “Davlat oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-279-son Qarorlariga hamda oliy ta‘lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me‘yoriy-huquqiy xujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o‘quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste‘molchilari tomonidan qo‘yilgan talablar ham inobatga olingan.

Magistratura mutaxassisligi bo‘yicha tuzilgan ushbu malaka talablari o‘quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo‘lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o‘quv rejani o‘rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

Toshkent moliya instituti
rektori, professor

T.Z.Teshabayev

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
rektori, professor

K.Sharipov

Toshkent davlat agrar universiteti
birinchi prorektori, professor

S.Islamov